


**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI**

*Mavzu: Chiziqli ekonometrik model orqali  
prognoz qilish*

*Ma'ruzachi:  
«Axborot texnologiyalari» kafedrasi  
professori, i.f.n.  
Shadmanova Gulchera*



## ***REJA:***

- 1. Chiziqli modelning ko'rinishini tanlash.***
- 2. Prognoz qilish ketma-ketligi.***

# *1. Chiziqli modelning ko'rinishini tanlash.*

Aytaylik, X va Y lar quyidagi tenglama orqali:

$$Y = \alpha + \beta x$$

chiziqli bog'langan va bular statistik miqdorlardan iborat bo'lsin.  $\langle x_1, x_2, \dots, x_n \rangle$  tanlamalar orqali nazariy modelning  $y = \hat{\alpha} + \hat{\beta}x$  baholarini hosil qildik.  $x_q \in \langle x_1, x_2, \dots, x_n \rangle$  davrda model orqali prognozni qidirishdan iborat.  $y_q = y(x_q)$

Bu masalani yechish uchun quyidagilarni bajarish kerak:

## 2. Prognoz qilish ketma-ketligi.

1.  $y_q = y(x_q) = x_q\beta + \alpha$  ni hisoblash.

$$2. S_p = \sqrt{S^2 \left[ \frac{1}{n} + \frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2}{\sum_{i=1}^n (y_i - \hat{y}_i)^2} \right]}$$

ni hisoblash kerak, bu yerda

$$S^2 = \frac{1}{n-2} \sum_i (y_i - \hat{y}_i)^2 \quad \text{ga teng.}$$

3. t-styudent taqsimlash jadvali orqali  $t_{n-2}^\alpha$  ni

hisoblash kerak, bu erda  $\alpha$  ni  $100\% * (1 - 2\alpha)$  orqali aniqlash mumkin.

Ishonch oralig'ini berilgan  $100\% * (1 - 2\alpha)$  orqali qidirganimizda qidirilayotgan Yq miqdor aniqlanadi:

$$\hat{Y}_q - t_{n-2}^{\alpha} \cdot S_p \leq Y_q \leq \hat{Y}_q + t_{n-2}^{\alpha} \cdot S_p$$

Ekonometrik modelga misol.

Shaharning 10 ta savdo shahobchalarini kuzatish orqali mol go'shtining lahm joyiga bo'lgan talab qonuni tekshirilgandagi kuzatish natijasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

| Kuzatish tartibi            | I     | 1  | 2   | 3   | 4  | 5  | 6   | 7   | 8   | 9   | 10  |
|-----------------------------|-------|----|-----|-----|----|----|-----|-----|-----|-----|-----|
| Sotib olingan mahsulot (kg) | $Y_i$ | 25 | 30  | 20  | 25 | 15 | 10  | 20  | 35  | 40  | 30  |
| 1kg. ning narxi(sh.b.)      | $X_i$ | 3  | 2.5 | 3.5 | 3  | 4  | 4.5 | 3.7 | 2.5 | 2.3 | 2.7 |

Yechish.

1-qadam . Talab qonunining modelini tanlash:

$$Y = \alpha + \beta x$$

2-qadam. Kuzatishlar jadvali orqali va (7) formulaga asosan eng kichik kvadratlar usulidan foydalanib  $\alpha$ ,  $\beta$  - koeffitsientlarni baholaymiz:

$$\hat{\beta} = -12.1 \quad \hat{\alpha} = 63.5$$

3-qadam. Tanlangan modelning ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

$$y = \hat{\alpha} + \hat{\beta}x = 63.5 - 12.1x$$

4-qadam. Eng kichik kvadratlar usuli orqali baholaymiz ya'ni  $\hat{\alpha}, \hat{\beta}$  baholarni topamiz. Statistikadan ma'lumki,

$\hat{\alpha}, \hat{\beta}$  larni eng kichik kvadratlar usuli bilan baholashda quyidagi sifatlariga e'tibor beriladi:

# siljimaslik (ya'ni)  $M(\hat{\alpha}) = \alpha$ , va  $M(\hat{\beta}) = \beta$ .

# asoslanganlik ya'ni  $n \rightarrow \infty$  da  $\text{var}(\hat{\alpha}) = 0$  va  $\text{var}(\hat{\beta}) = 0$ .

5-qadam. Determinatsiya koeffitsienti orqali modelning adekvatligini baholash:  $R^2 = 0.938$  y’ani  $Y$   $X$  dan 94% chiziqli bog’langan va uning ko‘rinishi  $2.5 \leq X \leq 4$  ;  $10 \leq Y \leq 40$  oraliqda  $Y = 63.5 - 12.1x$  bo‘ladi.

6-qadam. Hosil qilingan model orqali prognoz qilish:  
Agar mol go'shtining laxm joyining 1kg ni 5 sh.b dan  
oladigan bo'lsa, qancha go'sht sotib olish kerak?  
Regressiya tenglamasidan y ning prognoz qiymati:

$$Y = 63.5 - 12.1 \cdot x = 63.5 - 12.1 \cdot 5 = 3 \quad \text{ni hosil qilamiz.}$$

Bundan ko'rinish turibdiki, bu narx bilan 3 kg sotib olish  
mumkin bo'ladi. Demak, bu narx yuqori bo'lganligi uchun,  
sotib olinadigan go'shtning miqdori kam bo'layapdi.

# **Mustaqil o‘zlashtirish uchun savol va topshiriqlar**

- 1. Prognoz qilishdan maqsad nima?**
- 2. Ekonometrik model orqali prognoz qilish qanday amalga oshiriladi?**
- 3. Ekonometrik modelda prognoz qilishda qanday qoidalarga etibor beriladi?**
- 4. Prognoz qilishda regressiya tenglamasi qanday talablarga javob berishi kerak?**
- 5. Regressiya tenglamasida siljimaslik va asoslanganlik qanday aniqlanadi?**
- 6. Determinatsiya koeffitsientini aniqlash orqali nima aniqlanadi?**
- 7. Ekonometrik model orqali prognoz qilish ketma-ketligini ayting?**

# **ADABIYOTLAR ROYXATI**

1. Dougherti K. Introduction to ekonometrics – New York. Oxford University Press. 2011.
  2. James H. Stock, Mark W. Watson. Introduction to Econometrics. Third edition. Addison-Wesley. 2011.
  3. Абдуллаев А.М., Ходиев Б.Ю., Ишназаров А.И. Эконометрика: Учебник. – Т.: ТГЭУ. 2007.
  4. Беркинов Б.Б. Эконометрика.-Т. Фан ва технология. 2015.
  5. Ходиев Б.Ю., Шодиев Т.Ш., Беркинов Б.Б., Эконометрика.- Т. ТДИУ. 2016.
  6. Shadmanova G. Iqtisodiy matematik usullar va modellar. Darslik..-T.TIQXMMI. 2013.
  7. Shadmanova G.,Raxmankulova B.,Karimova X.X. Ekonometrika Darslik..-T.TIQXMMI. 2019.
- <https://www.hse.ru/ba/we/courses/292702275.html>
- <https://www.coursera.org/learn/ekonometrika>



***ETIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!***